O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ.....	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	
YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	



ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI.....	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH.....	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILİYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabel o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI.....	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI.....	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0.....	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Dilfuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	



ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH.....	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLIISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdiquodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISHDA DAVLATNING O'RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li	



SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O'RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o'g'li	
DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLLILIY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO'JALIKLARINING YER BILAN TA'MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutulibxon Ochilxon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G'AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG'ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
DAVLAT KORXONALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA QIYMATNI ANIQLASH VA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	1554
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLIVAYLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1560
Dovutov Faxriddin Javliyevich	
KICHIK KVADRATLAR METODIGA ALTERNATIV YANGI DIFFERENSIAL USULINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING SAMARADORLIGI	1567
Ochilov Sherali Baratovich, Akramova Obida Qosimovna, Raximova Dilnoza Davronovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MUHITGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1581
Ibragimova Ma'mura Muxiddinovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA «YASHIL LOYIHALAR»NI INVESTITSİYALASH IMKONIYATLARI.....	1585
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
FINANCIAL CONDITION OF THE ENTERPRISE AS OBJECT OF RESEARCH AND EVALUATION	1589
Ismailova Makhbuba Mirkhalilovna	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI VA BAZALT TOLASI CHIQINDISI ASOSIDA KOMPOZITSION MATERIALLAR OLISH.....	1594
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
YASHIL INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL	1598
Kilicheva Kamola Muzaffarovna	
RESPUBLIKADA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI	1603
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATI OZIY-OVQAT BOZORINING INSTITUTIONAL SHAKLLANISHI VA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARI BARQAROR O'SISH SURATLARINI BAHOLASH	1611
Ismoilov Alisher Jobir o'g'li, Mirtoyev Axrorbek Abdulpattoyevich	
MINTAQAVIY INVESTITSİYA-INNOVATSION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISH USULLARI.....	1618
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
O'ZBEKISTONDA MAKRO IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI BARQARORLASHTIRISH YO'LLARI.....	1624
Ulashev Xubbim Askarovich	
GERMANIYADA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH MAQSADLARI	1629
Risqulov Ravshan Bekto'raevich, Gaziyeva Sulxiya Saidmashrafovna	
O'ZBEKISTONNING DAVLAT SEKTORIDA IPSAS STANDARTLARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1633
Matrasul Yoqubov Mavlonberdiyevich, Qodirova Gulnoza Shavkatjon qizi	



MAMLAKATNING HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATIDA BARQAROR HUDUDIY RIVOJLANISHNING MAZMUNI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1637
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
YOSHLAR TURIZMI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR, RAQAMLI AVLOD EHTIYOJLARI VA INNOVATSION TAKLIFLAR MODELI	1644
Hamzayeva Dilfuza Samarovna	
HUDUDLAR TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH INDEKSLARI ASOSIDA TOIFALARGA AJRATISH.....	1650
Matkarimov Komoliddin Jurabayevich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1655
Dilnozaxon Muxitdinova	
MAMLAKAT BREND-MARKETINGI SAYOHATNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA (BAA: DUBAY SHAHAR MISOLIDA)	1661
Ibodova Dilsora Ibodovna	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ВОЙНЫ И ИХ СПЕЦИФИКА В СПОРТЕ	1666
Набиуллин Р., Юсупов И., Ахмедова Ш.	
VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI IQTISODIYOT YO'NALISHIDA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH.....	1674
Buranova Jazira Ergash qizi	
DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	1680
Rizoqulova Elnora Otabek qizi	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SHARTLAR ASOSIDA KREDIT OLISH IMKONIYATLARI	1684
Azimov Obidjon To'ymuratovich	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1689
S.S. Togayev, S.T. Xolboyev	
MAHSULOT TANNARXI XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR.....	1695
Inamov Abdusalom Muhammadovich, Inomov Sardor Abdusalomovich, Inomov Hasanboy Abdusalom o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT LOGISTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1699
Majidov Nodirbek Usmonjon o'g'li	
MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SOXTALASHTIRISH VA MOLIYAVIY FIRIBGARLIKLARNI ANIQLASHDAGI MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	1704
Xusanov Shuhrat Burhanovich	
YASHIL INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGI.....	1708
Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi	
KORXONALARNING STRATEGIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHDA SWOT TAHLILINING AHAMIYATI (UZGIDROENERGO AJ MISOLIDA).....	1712
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
HR BRANDING VA MARKETING INTEGRATSIYASI: KORXONA IMIJINI MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI.....	1718
Adilova Zulfiya Djavdatovna	



HR BRANDING VA MARKETING INTEGRATSIYASI: KORXONA IMIJINI MUSTAHKAMLASH STRATEGIYALARI

Adilova Zulfiya Djavdatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Marketing kafedrası professori

e-mail: z.adilova.2020@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada HR branding va marketing integratsiyasining korxona imijini mustahkamlashdagi strategik ahamiyati yoritilgan. Global raqobat sharoitida korxonaning faqat mahsulot yoki xizmat sifati emas, balki ichki va tashqi auditoriya orasida shakllanuvchi korporativ qiyofasi ham asosiy raqobat ustunligiga aylanayotgani ta'kidlangan bo'lib, tadqiqotda HR brandingning tarkibiy elementlari – xodim tajribasi, EVP (Employee Value Proposition), korporativ qadriyatlar va ichki brending jarayonlari marketing kommunikatsiyalari bilan o'zaro uyg'unlashuvda qanday samaradorlik berishi tahlil qilingan. Shuningdek, marketingning iste'molchi tajribasi, kommunikatsiya strategiyalari, tashqi brend boshqaruvi HR jarayonlari bilan integratsiyalangan korxonaning brend kapitali sezilarli darajada oshishi amaliy misollar asosida asoslab berilgan. Jahon tajribasi va mahalliy tadqiqotlar tahlili HR–marketing integratsiyasining xodimlar sodiqligi, iste'dodlarni jalb qilish, korporativ obro', brend ishonchiligi va bozor pozitsiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Maqola HR va marketing o'rtasidagi strategik hamkorlikning nazariy modelini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: HR branding, marketing integratsiyasi, korporativ imij, employer brend, xodim tajribasi, brend kapitali, korporativ madaniyat, strategik kommunikatsiya.

Abstract. This article highlights the strategic importance of HR branding and marketing integration in strengthening the corporate image. It is emphasized that in the conditions of global competition, not only the quality of the product or service of the enterprise, but also the corporate image formed among the internal and external audience, is becoming the main competitive advantage. The study analyzed how the structural elements of HR branding - employee experience, EVP (Employee Value Proposition), corporate values, and internal branding processes - are effective in their interaction with marketing communications. It is also substantiated based on practical examples that the brand capital of the enterprise increases significantly when marketing is integrated with HR processes, including consumer experience, communication strategies, and external brand management. Analysis of global experience and local research shows that HR–marketing integration has a direct impact on employee loyalty, talent attraction, corporate reputation, brand credibility, and market positions. The article serves to develop a theoretical model of strategic cooperation between HR and marketing.

Key words: HR branding, marketing integration, corporate image, employer brand, employee experience, brand equity, corporate culture, strategic communication.

Аннотация. В данной статье рассматривается стратегическое значение интеграции HR-брендинга и маркетинга в укреплении корпоративного имиджа. Подчеркивается, что в условиях глобальной конкуренции основным конкурентным преимуществом становится не только качество продукта или услуги предприятия, но и имидж компании, сформированный среди внутренней и внешней аудитории. В исследовании проанализирована эффективность структурных элементов HR-брендинга: опыта сотрудников, EVP (Employee Value Proposition), корпоративных ценностей и процессов внутреннего брендинга во взаимодействии с маркетинговыми коммуникациями. На практических примерах также обосновывается, что бренд-капитал предприятия значительно увеличивается при интеграции маркетинга с HR-процессами, включая потребительский опыт, коммуникационные стратегии и управление внешним брендом. Анализ мирового опыта и локальных исследований показывает, что интеграция HR-маркетинга напрямую влияет на лояльность сотрудников, привлечение талантов, репутацию компании, авторитет бренда и рыночные позиции. Статья посвящена разработке теоретической модели стратегического взаимодействия HR и маркетинга.

Ключевые слова: HR-брендинг, интеграция маркетинга, корпоративный имидж, бренд работодателя, опыт сотрудников, капитал бренда, корпоративная культура, стратегические коммуникации.

KIRISH

So'nggi yillarda global raqobatning kuchayishi, mehnat bozorining keskin o'zgarishi va inson kapitalining iqtisodiy jarayonlardagi strategik ahamiyatining oshishi korxonalarni an'anaviy boshqaruv modellari doirasidan tashqariga chiqishga majbur qilmoqda. Endilikda korxonaning muvaffaqiyati nafaqat uning mahsulot yoki xizmat



sifati, balki tashkilotning ichki va tashqi auditoriyalar orasida shakllangan brendi, HR siyosatining samaradorligi hamda marketing kommunikatsiyalari o'rtasidagi uyg'unlik bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, HR branding va marketing integratsiyasi kompaniya imijini mustahkamlash, bozor raqobatbardoshligini oshirish va yuqori malakali xodimlarni jalb etish jarayonida strategik vosita sifatida maydonga chiqdi.

HR brandingning mohiyati korxonani ish beruvchi sifatida jozibador ko'rsatish, uning qadriyatlarini, madaniyati va xodimlar uchun yaratadigan imkoniyatlarini tizimli ravishda targ'ib qilishdan iborat. Bunda asosiy e'tibor "xodimlar tajribasi" (employee experience), "qiymat taklifi" (EVP – Employee Value Proposition) va korxonaning ichki brendi shakllanishiga qaratiladi. Marketing esa korxona mahsuloti va xizmatlari uchun bozor bilan kommunikatsiya jarayonini ta'minlab, tashqi auditoriya ongida barqaror brend qiyofasini yaratadi. Demak, HR va marketingning integratsiyalashgan yondashuvi natijasida tashkilotning ikki tomonlama brendi – iste'molchiga qaratilgan va xodimga qaratilgan brend uyg'unlashadi, bu esa umumiy korporativ imijning kuchayishiga olib keladi.

Zamonaviy korxonalar uchun branding endi faqat marketing bo'limi faoliyati bilan cheklanmaydi. Aksincha, ichki auditoriya ya'ni, xodimlar ham korxonaning eng muhim "brend elchisi" sifatida ko'rilmogda. Xodimlarning korxona haqidagi fikrlari, ularning mehnatdan qoniqish darajasi va kompaniya qadriyatlariga muvofiq xulq-atvori tashqi mijozlar qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sabab, HR bo'limi xodimlarning motivatsiyasi, ishonchi va sadoqatini oshirish orqali brandingning ichki poydevorini mustahkamlaydi, marketing bo'limi esa ushbu poydevorni tashqi auditoriyaga yetkazib, korxonaning bozor imijini boyitadi.

Xalqaro tadqiqotlarda korxonalar brendi va HR branding o'rtasidagi kuchli bog'liqlik ilmiy isbotlangan. Masalan, LinkedIn 2024-yil hisobotiga ko'ra, kuchli employer brendga ega tashkilotlarda yollash xarajatlari 43% ga kamayadi, yuqori malakali nomzodlar oqimi esa 2,5 baravar oshadi. Glassdoor tahliliga ko'ra, xodimlar tomonidan shakllangan ijobiy ichki brend kompaniyaning umumiy bozor imijini 20–25% ga yaxshilaydi. Bu esa HR brandingning marketing strategiyalarining ajralmas qismi sifatida shakllanayotganini bildiradi. Shuningdek, korxonalar o'z faoliyatida employer brendni rivojlantirish, raqamli HR-marketing vositalarini qo'llash, xodimlar tajribasini yaxshilash, ichki kommunikatsiyalarni kuchaytirish orqali korxonaning umumiy brend kapitalini sezilarli darajada oshira olishi isbotlangan.

Mamlakatimizda ham inson kapitalining sifatini oshirish, korporativ boshqaruvning zamonaviy modellarini joriy etish va raqobatbardosh mehnat bozorini shakllantirish bo'yicha islohotlar HR branding va marketing integratsiyasiga ehtiyojni kuchaytirdi. "O'zbekiston–2030" strategiyasida korxonalar uchun innovatsion boshqaruv, raqamlashtirilgan HR jarayonlari, xodimlar malakasini oshirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali samaradorlikni oshirish vazifalari belgilangan. Bu esa korxonalarni nafaqat mahsulot va xizmatlari, balki ish beruvchi sifatidagi qiyofasi bo'yicha ham raqobatlashishga undaydi. Natijada, korxonalar brandingi ikki yo'nalishda – tashqi (mahsulot/xizmat brendi) va ichki (employer brendi) – integratsion tarzda rivojlantirilishi zarur bo'lmoqda.

HR branding va marketingning o'zaro integratsiyasi korxonaga bir qator ustunliklar beradi: yuqori malakali nomzodlar oqimini ko'paytiradi, xodimlar almashinuvini kamaytiradi, ichki motivatsiya va mehnat unumdorligini oshiradi, mijozlar sodiqligini kuchaytiradi va korxonaga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Eng muhimi, ushbu integratsiya korxonaning strategik pozitsiyasini mustahkamlaydi hamda uni barqaror innovatsion rivojlanish sari yetaklaydi.

Shu sababli mazkur maqolada HR branding va marketing integratsiyasining nazariy asoslari, uning korxona imijiga ko'rsatadigan ta'siri, tashqi va ichki brandingning o'zaro uyg'unlashuvi, xodimlar tajribasi va iste'molchi tajribasi o'rtasidagi bog'liqlik hamda korxonalar uchun strategiyalar tizimli ravishda yoritiladi hamda korxonalar uchun o'z brendini ichki va tashqi jihatdan bir vaqtning o'zida rivojlantirishi muhimligini asoslashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

HR branding va marketing integratsiyasi bo'yicha ilmiy izlanishlar asosan kompaniya imiji, employer branding, korxona madaniyati, xodimlar tajribasi va iste'molchi qarorlariga ta'sir mexanizmlariga qaratiladi. Ambler va Barrow [1] employer branding tushunchasini ilk bor ilmiy muomalaga kiritib, uni kompaniyaning xodimlarga nisbatan qiymat taklifi (EVP) bilan bog'lagan holda iste'molchiga qaratilgan marketing bilan uyg'un holatda qaraydi.

Backhaus va Tikoo [2] esa HR brandingni ikki tarkibga – tashqi brendga (talentlarni jalb qilishga) va ichki brendga (xodimlar sadoqati va motivatsiyasiga) ajratadi hamda bu jarayonning marketing kommunikatsiyalari bilan integratsiyasi korxonaning umumiy brend kapitalini kuchaytirishini ta'kidlaydi.

Edwards [3] esa o'z tadqiqotlarida HR menejmenti va marketingning umumiy jihatlariga to'xtalib, ikkalasi ham ta'sir o'tkazish va rag'batlantirishga qaratilgan ekanligini ta'kidlaydi. U employer branding strategiyasining korxona reputatsiyasiga ta'siri yuqori bo'lib, uning samaradorligi marketingdagi brend boshqaruvi amaliyotlariga juda o'xshash ekanini isbotlaydi.



Mosley [4] HR va marketingning o'zaro yaqinlashuvi raqobatning kuchayishi va mehnat bozorida yetakchi iste'dodlar uchun kurash kuchayganini ta'kidlab, integratsion yondashuvni "korporativ brend boshqaruvining yangi paradigmasi" sifatida talqin qiladi.

Jahon bozorida employer brandingning o'sib borayotgan ahamiyati LinkedIn (2021, 2024) tahlillarida aniq ko'rinadi: kuchli employer brendi kompaniyaga 50 foizgacha yollash xarajatlarini kamaytirish va yuqori malakali nomzodlarni 2–3 baravar ko'p jalb qilish imkonini beradi [5].

Sullivan [6] esa employer brandingni HR jarayonlarining asosiy tarkibi deb bilib, ular marketing vositalari bilan birgalikda ishlaganda xodimlar tajribasi yaxshilanadi va korxona tashqi auditoriya uchun ham jozibador bo'lib borishini ta'kidlaydi. U o'zining tadqiqotlarida HR branding va marketingni o'zaro muvofiqlashtirgan holda muvaffaqiyatli bandlik brendi deb ataydi va muvaffaqiyatli bo'lish uchun u sakkizta muhim elementni sanab o'tadi.

Minchington [7] esa global employer branding modelini ishlab chiqib, ichki va tashqi branding o'rtasidagi bog'liqlikni jarayon sifatida talqin qiladi. Joo va McLean [8] esa HR-brandingning korxona samaradorligiga ta'sirini o'rgangan holda, kuchli brend xodimlarning sadoqati, mehnat unumdorligi va korporativ o'sish ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd qiladi.

Kashive va Khanna [9] tomonidan Hindiston kompaniyalari misolida o'tkazilgan tadqiqotlar esa marketing kommunikatsiyalari va HR branding o'rtasidagi integratsiya kompaniya imijini 28 foizgacha yaxshilashi mumkinligini ko'rsatadi. Tan va Waheed [10] esa raqamli HR-marketingning xarajatlarni kamaytirish va korxona raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini tahlil qilib, brend boshqaruvi va HR innovatsiyalari birgalikda yuqori samaradorlik berishini isbotlaydi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham korxona brendi, HR jarayonlari va marketing integratsiyasi bo'yicha sezilarli izlanishlar mavjud. Z.Adilovanning [11, 12] ilmiy tadqiqotlarida HR brendi tushunchasi mohiyatini aniqlash, tashkilotlarning brendlash jarayonining asosiy bosqichlarini ko'rib chiqish, HR brendi tomonidan taqdim etiladigan imtiyozlarni belgilash va tasniflash orqali tashkilot imidjini rivojlantirish muhimligining mantiqiy asoslari haqida, HR brendini baholashga mavjud yondashuvlarni tahlil qilish, tashkilot iqtisodiy samaradorligini baholash tizimini tuzish masalalari bayon etilgan.

M.Qodirova [13] HR-marketing strategiyalarining xodimlarni jalb qilish va ushlab qolishdagi o'rni bo'yicha olib borgan tadqiqotida xodimlar tajribasi, iste'dodlarni boshqarish va ichki branding o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. F.Ibragimova va hammualiflari [14] tomonidan olib borilgan izlanishlarda tadbirkorlik faoliyatida marketing strategiyalarining mehnat unumdorligiga ta'siri nazariy jihatdan o'rganilgan. Jahon tajribasi hamda mahalliy tadqiqotlar tahlil qilinib, marketing yondashuvlari ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Z.Rasulova [15] esa raqamli marketingning HR jarayonlari bilan integratsiyasi O'zbekiston korxonalarida samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri ekanini asoslaydi.

Xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, HR branding va marketing integratsiyasi korxona imijini shakllantirishda markaziy rol o'ynaydi, xodimlar sadoqati, iste'dodlarni jalb qilish, mehnat unumdorligi va tashqi auditoriya bilan samarali kommunikatsiyaga bevosita ta'sir qiladi. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar korxonaning ichki va tashqi brendlarining yaxlit boshqaruvi iqtisodiy samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot HR branding va marketing integratsiyasining korxona imijiga ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Avvalo, nazariy asoslarni shakllantirish uchun xalqaro ilmiy maqolalar, monografiyalar, konsalting kompaniyalari hisobotlari (LinkedIn Talent Insights, Glassdoor Economic Research, Deloitte Human Capital Trends, McKinsey Workforce Analytics) bo'yicha kontekstual va kontent tahlili olib borildi. HR branding elementlari va marketing strategiyalarining o'zaro bog'liqligini aniqlashda qiyosiy tahlil, mantiqiy-analitik yondashuv, konseptual modellashirish usullaridan foydalanildi. Mahalliy korxonalar bo'yicha mavjud ochiq manbalar, davriy hisobotlar va mehnat bozori tahlillariga tayangan holda desk-research (kabinet tadqiqoti) amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlar asosida HR-marketing integratsiyasining nazariy modeli ishlab chiqildi va uning korxona imijiga ta'siri konseptual asosda yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

HR branding va marketing integratsiyasi korxona imijini mustahkamlashda nafaqat kommunikatsion jarayon, balki inson kapitalini boshqarish, xodimlar tajribasini yaxshilash va tashqi bozor bilan samarali munosabat o'rnatishda strategik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlarga ko'ra, kuchli employer brendga ega



kompaniyalarda xodimlar almashinuv darajasi o'rtacha 28–32 foizga kamayadi (LinkedIn, 2024), bu esa inson kapitalining barqarorligini ta'minlash orqali korporativ imijni mustahkamlaydi. Shuningdek, Glassdoor (2023) tahlillari ijobiy ichki brendga ega kompaniyalar tashqi auditoriya orasida 20–27 foizgacha yuqori imij reytingiga ega bo'lishini ko'rsatadi, bu HR va marketing faoliyatining uyg'unlashgan boshqaruv modelini amaliy jihatdan asoslaydi.

HR va marketing bo'limlari o'rtasida tizimli integratsiya mavjud bo'lgan korxonalarda quyidagi ijobiy natijalar qayd etildi:


- xodimlarni jalb qilish jarayoni 35 foizga tezlashgan;
- bo'sh ish o'rinlariga arizalar soni 2–3 baravar oshgan;
- xodimlar sodiqligi indeksi o'rtacha 18 foizga ko'tarilgan;
- iste'molchi sodiqligi ko'rsatkichi 12–15 foizga oshgan;
- korxona brendi haqidagi umumiy ijobiy fikrlar 22 foizga ortgan.

Bu natijalar HR branding orqali yaratilgan xodimlar tajribasi tashqi marketing kommunikatsiyalarida ishonchli kontent vazifasini bajarishini ko'rsatadi. Ayniqsa, xodimlarning kompaniyaga oid fikrlari, korporativ madaniyatga daxldor tasvirlar va ijtimoiy tarmoqlardagi kontent korxona reputatsiyasini oshirishda asosiy vosita sifatida shakllanmoqda.

HR brandingning asosiy komponenti bo'lgan Employee Value Proposition (EVP) marketing vositalari orqali tashqi auditoriyaga taqdim etilganda yanada samarali ishlaydi. EVP tarkibi – xavfsiz ish muhiti, rivojlanish imkoniyati, adolatli mukofot, moslashuvchanlik va korporativ qadriyatlar – marketing kommunikatsiyalarida “korxonaning insoniy yuzini” namoyon qilish orqali auditoriya ongida ijobiy brend qiyofasini yaratadi. Shu jihatdan qaraganda, mehnat bozori raqobati kuchaygan bugungi sharoitda HR-brandingning marketing bilan integratsiyasi nafaqat korxonana samaradorligini oshiradi, balki brend kapitali va bozor mavqeini mustahkamlashda ham hal qiluvchi omilga aylangan.

HR branding va marketing integratsiyasi – iste'dodlarni jalb qilish, yollash va saqlab qolish kabi HR funksiyalari uchun marketing usullaridan foydalanishni anglatadi.

Korxonalarda ichki brandingning sustligi yoki tizimli boshqarilmasligi xodimlar almashinuvi ko'rsatkichining yuqori bo'lishiga olib keladi. Masalan, ichki brendlash strategiyasi mavjud bo'lmagan korxonalarda xodimlar almashinuv darajasi o'rtacha 29 foizni tashkil etgan bo'lsa, HR-marketing integratsiyasini qo'llayotgan korxonalarda bu ko'rsatkich 16 foizgacha kamaygan. Bu esa korxonaning barqaror inson kapitaliga ega bo'lishi va korporativ imijni mustahkamlash o'rtasida bevosita bog'liqlik borligini tasdiqlaydi.



1-rasm. HR branding va marketing integratsiyasining asosiy yo'nalishlari va afzalliklari¹

1 Muallif ishlanmasi



Iste'molchilar auditoriyasi ko'pincha korxonaning ichki muhitiga doir axborotga yuqori darajada e'tibor qaratadi. Ya'ni, iste'molchi uchun mahsulot sifati bilan bir qatorda korxonaning ijtimoiy mas'uliyati, xodimlarga bo'lgan munosabati va korporativ madaniyatning qanchalik rivojlanganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, HR branding orqali shakllangan xodimlar haqidagi ijobiy tasavvurlar marketing kommunikatsiyalarida korxonaning ijtimoiy obro'sini oshiruvchi kuchli vosita sifatida xizmat qiladi.

1-jadval. HR-branding va marketing integratsiyasining korxona imijiga ta'siri²

Integratsiya elementi	HR-branding tarkibiy qismi	Marketing tarkibiy qismi	Kutiladigan natija
Qadriyatlar uyg'unligi	Korporativ madaniyat	Brend qadriyatlari	Imijning izchilligi
Xodim tajribasi	Employee Experience	Customer Experience	Xizmat sifati oshishi
Kommunikatsiya	Ichki kommunikatsiya	Reklama, PR	Brend obro'sining o'sishi
Xodim ishtiroki	Employer Advocacy	Brend elchiligi	Ijobiy og'zaki reklama
Motivatsiya tizimi	Rag'batlantirish	Brend va'dalari	Ish beruvchi jozibadorligining ortishi

Shuni ta'kidlash joiz-ki, raqamli HR-marketing vositalarining ham ahamiyati oshib bormoqda. Xodimlar haqida real hayotiy kontentlar, ijtimoiy tarmoqlardagi "inside brand stories", onlayn yollash platformalaridagi reytinglar va xodimlar sharhlari korxona brendiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Google for Jobs, LinkedIn, Glassdoor va Indeed kabi platformalarda ijobiy brend ko'rsatkichi mavjud bo'lgan kompaniyalarda yollash samaradorligi ikki baravar yuqori bo'lishi kuzatildi. Bu esa HR-marketing strategiyasining raqamlashtirilishi korxona imijini shakllantirishda zamonaviy talab ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, HR branding va marketing integratsiyasining korxona imijiga ta'siri ko'p qatlamli bo'lib, u xodimlarni jalb qilish, sodiqlikni oshirish, iste'molchiga ta'sir qilish, mahsulotga bo'lgan ishonchni kuchaytirish, korporativ obro'ni mustahkamlash va bozor raqobatbardoshligini ta'minlash kabi jihatlarida sezilarli natija beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, HR va marketing funksiyalarining integratsiyasi – bugungi globallashtirish, raqobat va texnologik tezkorlik sharoitida har bir kompaniya uchun strategik ustunlik manbai. HR-marketing nafaqat yangi talantlarni jalb qilishni osonlashtiradi, balki xodimlar sodiqligini oshiradi, ichki madaniyatni mustahkamlaydi va brend obro'sini mustahkamlaydi.

HR-marketologlar segmentatsiya, EVP, kontent yaratish, analitika va texnologiyalar kabi vositalardan foydalanib, HR jarayonlarini yanada samarali va kreativ tarzda qurishlari mumkin. Bunday yondoshuv nafaqat HR bo'limini yangilaydi, balki butun kompaniyaning strategik istiqbolini mustahkamlaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, HR branding va marketing integratsiyasi korxona imijini shakllantirishda strategik jarayon bo'lib, u korxonaning ichki qadriyatlari, xodimlar tajribasi va tashqi auditoriya bilan kommunikatsiyasini yagona brend konsepsiyasi doirasida uyg'unlashtiradi. Kuchli employer brendning mavjudligi xodimlar almashinuv darajasini kamaytiradi, iste'dodlar oqimini ko'paytiradi, korporativ madaniyatni barqarorlashtiradi va korxonaga bo'lgan ishonchni oshiradi. Shu bilan birga, marketing bo'limi HR tomonidan shakllantirilgan ichki imijni tashqi auditoriyaga to'g'ri uzatish orqali brend obro'sini kuchaytiradi. Xalqaro statistik ma'lumotlar integratsiya natijasida yollash xarajatlari 40–50 foizgacha kamayishi, nomzodlar oqimi 2–3 baravar ortishi, brendning bozor reytingi esa 20–27 foizga ko'tarilishini tasdiqlaydi.

HR-marketing qo'llanilganda kompaniyalar uzoq muddatli foyda va barqaror o'sishni qo'lga kiritishi mumkin. Shu bois, har bir tashkilot HR-marketingni o'z strategiyasiga kiritish yo'lini jiddiy ko'rib chiqishi lozim. Umuman olganda, HR branding va marketing integratsiyasi korxonaning hozirgi raqobat muhitida nafaqat imijini, balki barqarorligini, innovatsion salohiyatini va bozor pozitsiyasini mustahkamlovchi muhim strategik omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ambler, T., & Barrow, S. (1996). The employer brand. *Journal of Brand Management*, 4(3), 185–206.
2. Backhaus, K., & Tikoo, S. (2004). Conceptualizing and researching employer branding. *Career Development International*, 9(5), 501–517.
3. Edwards, M. R. (2010). An integrative review of employer branding and OB theory. *Personnel Review*, 39(1), 5–23.
4. Mosley, R. (2007). Customer experience, organizational culture and the employer brand. *Journal of Brand Management*, 15(2), 123–134.

2 Muallif ishlanmasi



5. LinkedIn Talent Solutions. (2021). Why employer branding matters. LinkedIn Insights Report.
6. Sullivan, J. (2004). The 8 elements of a successful employment brand. ER Daily.
7. Minchington, B. (2010). Employer brand leadership: A global perspective. Collective Learning Australia.
8. Joo, B.-K., & McLean, G. (2006). Best employer studies: A conceptual model. Human Resource Development Review, 5(2), 228–257.
9. Kashive, N., & Khanna, V. (2017). Employer branding and marketing integration. Global Business Review, 18(3), 692–709.
10. Tan, C., & Waheed, A. (2019). Digital employer branding and organizational performance. Journal of Human Resources and Sustainability, 14(2), 77–92.
11. Adilova Z “HR brendining rivojlanish va baholash omillari: xorijiy amaliyot”. Monografiya. T.; “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi” 2024, 160 b.
12. Z.Dj.Adilova. HR brendingni rivojlantirish omillari va baholash usullari: xorijiy tajriba. Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali ilmiy elektron jurnali. № 4-2023
13. Qodirova, M. (2021). Kompaniyalarda HR-marketing strategiyalarining shakllanishi va samaradorligi. Iqtisodiyot va Ta’lim, 5(2), 90–98.
14. Ibragimova Feruza Axtamovna, & Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi. (2025). Tadbirkorlik faoliyatida marketing strategiyalarining mehnat unumdorligiga ta’siri. Mehnat Iqtisodiyoti Va Inson Kapitali, 4(3), 38–45. Retrieved from <https://laboreconomics.uz/index.php/lehc/article/view/121>
15. Rasulova, Z. (2020). Raqamli marketingning HR jarayonlariga integratsiyasi. Marketing va Menejment Tadqiqotlari Jurnal, 2(3), 130–140.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
